

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

“KIMYOVIY TEXNOLOGIYA» KAFEDRASI

MALAKA AMALIYOTI DASTURI

5A320402 - “Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi (tolali materiallarni kimyoviy pardoqlash)” va 5A320402 - “Yuqori molekulari birimlar kimyoviy texnologiyasi (qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish)”
mutaxassisliklaridagi magistratura talabalari uchun

USLUBIY QO‘LLANMA

Toshkent – 2019

ANNOTATSIYA

Ushbu amaliyot dasturi 5A320402 - “Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi (tolali materiallarni kimyoviy pardoqlash)” va 5A320405 - “Yuqori molekulali birimlar kimyoviy texnologiyasi (qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish)” mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olayotgan magistratura talabalari uchun mo‘ljallangan. Malaka amaliyoti dasturida talabalarni amaliyot davrida bajarishlari lozim bo‘lgan vazifalar, egallashlari lozim bo‘lgan ko‘nikmalar, ularning maqsadi, amaliyot davrining taqsimlanishi, amaliyot bo‘yicha hisobot tayyorlash va uni himoya qilish tartiblari keltirilgan.

TTYeSI ilmiy-uslubiy
kengashida tasdiqlangan

« ____ » _____ 2019 y.

Bayonnoma № ____

Tuzuvchilar: t.f.d., prof. Nabiyeva I.A.
t.f.n., dots. Miratayev A.A.

Taqrizchilar: TKTI “Sellyuloza va yog‘ochsozlik texnologiyasi”
kafedrası mudiri, k.f.n., dotsent Akmalova G.Yu.
TTYESI professori, t.f.d., Abdukarimova M.Z.

TTYESI bosmaxonasida ____ nusxada ko‘paytirilgan

KIRISH

Hukumatimiz tomonidan oldimizga qo'yilgan vazifa, ya'ni xomashyoni bosqichma-bosqich chuqur qayta ishlash orqali mahsulot turlarini mahalliyashtirish va ular nomenklaturasini kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Mahalliyashtirish va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish hozirgi kundagi ustuvor yo'nalishlardan bo'lib, bunda xomashyoni to'rt-besh bosqichda yanada chuqur qayta ishlash ko'zda tutilgan. Bu borada hukumatimiz tomonidan Respublikamizning turli sanoat tarmoqlarida jahon bozorida, ichki va mintaqaviy bozorlarda talab yuqori bo'lgan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda chuqur islohatlar qilish vazifasi qo'yilgan. Bu vazifalarni hal etishda jahon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo'nalishiga quyidagilar xam taalliqir:

- xalq iste'mol mahsulotlari sifatini yaxshilash
- raqobatbardoshligini ta'minlash
- dunyo namunalari darajasida ishlab chiqarish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» PQ-2909 son qarorida kadrlarni tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda malaka amaliyoti mavjud bo'lgan nazariy bilim asosida amaliy ko'nikmalarni egallash maqsadida mutaxassislik sohasiga mos bo'lgan muassasa, tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi va quyidagilarni nazarda tutadi:

– kadrlar tayyorlash milliy dasturi va kadrlar tayyorlash milliy modeli g'oyasi va mazmuni asosida amalga oshirishni;

– kasbiy faoliyat bo'yicha barcha turdagi ko'nikma va malakalarni o'rganish, didaktik va amaliyotga bog'liq sharoitlarda tatbiq qilishni;

- kasbiy faoliyat davomida amalga oshiriladigan jarayonlarda ishtirok etish hamda o‘z ustida ishlashni;
- mutaxassislikka doir barcha vositalar, usullar va zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘rganish va amaliyotda mustaqil qo‘llay olishni;
- mutaxassislik bo‘yicha amaliyotda qo‘llaniladigan barcha turdagi xujjatlarni zamon talablariga asosan yuritishni;
- kasbiy faoliyatning ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, ishlab chiqarish va boshqa sohalarida faol ishtirok etishni;
- respublika, institut va kafedra bo‘yicha “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harkatlar strategiyasi” ning mohiyatini, tarkibini va bajarilishini yaxshi bilishni, bu borada magistrnlarning tutgan o‘rnini tahlil qilishni.

AMALIYOT O‘TKAZISH MUDDATLARI VA JOYLARI

Magistratura talabalarining malaka amaliyoti uchinchi semestr tugagandan so‘ng sakkiz hafta davomida ishlab chiqarish korxonalarida va (yoki) tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida amalga oshiriladi. Amaliyot davrida har bir talaba uchun ilmiy rahbari tomonidan kundalik tuziladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi. Amaliyotni o‘tkazish muddatlari va har bir bo‘limda bajariladigan vazifalar 1-jadvalda keltirilgan.

AMALIYOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Malakka amaliyotining “*Xom va tayyor mahsulotlar sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, ularni aniqlash uslub va vositalarini o‘rganish*” davrida talaba amaliyot rahbari maslahati bilan korxonada mavjud bo‘lgan xom va tayyor assortimentlar ro‘yxatini tuzadi va ularning mavjud sifat ko‘rsatkichlarini yig‘adi. So‘ngra har bir sifat ko‘rsatkichni aniqlash uchun lozim bo‘lgan uslubiyatlar, texnik vositalar, ularni ishlatish qoidalari bo‘yicha ma’lumotlar to‘playdi.

Bu bo‘lim ilmiy tadqiqot institutida bajarilganda talaba tadqiqotlar uchun institutga keltirilgan kimyoviy reagentlar va tolali materiallarning sifatini aniqlash,

tegishli hujjatlarga mosligini baxolash, kimyoviy reagentlarni saqlash va ishlatilgan eritmalarni zarasizlantirish yo'llarini o'rganadi.

1-jadval

Amaliyotni o'tkazish muddatlari va vazifalari

№	Amaliyot vazifasi	O'tkazish joyi	Davomiyligi, hafta
1	Xom va tayyor mahsulotlar sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ularni aniqlash uslub va vositalarini o'rganish	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatituti	1
2	Mutaxassislikka doir vositalar, uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish	Korxonada	2
3	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatitutida o'rnatilgan reglament bo'yicha assortimentlar turlarini ishlab chiqarish uchun texnologik rejim (texnologik karta) tuzish sistemasini o'rganish	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatituti	3
4	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatitutida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni o'rganish, "klaster" elementlarini aniqlash va tahlil qilish.	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatituti	1
5	Amaliyot faoliyatining ma'naviy-ma'rifiy sohasida ishtirok etish	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatituti	1
JAMI			8

Malakka amaliyotining "Mutaxassislikka doir vositalar, uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish" davrida talabning ilmiy faoliyat davomida bajargan ilmiy ishlarini korxonada sharoitida sinab ko'rishi, kafedra va (yoki) ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriyalarida foydalangan laboratoriya asbob-uskunalarini korxonada laboratoriyasida o'rnatilgan asbob-uskunalar bilan solishtirishi ko'zda tutiladi. Bunda talaba institut va ilmiy-tadqiqot markazlarida

bajargan tadqiqotlarini korxonada sharoitida qaytarish va olingan natijalarni taqqoslash ko'nikmasiga ega bo'ladi va natijalarini tahlil qilib tegishli xulosalar chiqaradi.

Malakka amaliyotining *“Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot institutida o'rnatilgan reglament bo'yicha assortimentlar turlarini ishlab chiqarish uchun texnologik rejim (texnologik karta) tuzish sistemasini o'rganish”* davrida talabalar dastlab korxonadagi mavjud reglament bilan tanishib, uning tarkibini, ishlab chiqarishdagi ahamiyatini o'rganadilar. So'ngra ishlab chiqariladigan assortiment turlarini, har bir assortimentni ishlab chiqarishdagi texnologik ketma-ketlikni, texnologik ketma-ketlik bo'yicha bajariladigan jarayonlar mohiyatini, bajarish shart-sharoitlarini va foydalaniladigan jixoz va uskunalarni tuzilishi, ishlash prinsiplarini o'rganadilar.

Bu bo'lim ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilganda talaba o'z mavzusi doirasida tegishli maxsulot turini olish uchun tajriba natijalari asosida laboratoriya reglamentini ishlab chiqadi va shu reglament bo'yicha maxsulotning kichik tajriba partiyasini oladi.

Malakka amaliyotining *“Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot institutida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni o'rganish, “klaster” elementlarini aniqlash va tahlil qilish”* bo'limi bo'yicha talabalar korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot institutida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni aniqlab o'rganadilar, hamda o'zlari adabiyot sharhi bo'yicha izlanishlarida aniqlagan innovatsion texnologiyalar bilan solishtirib birgalikda tahlil qiladilar. “Klaster” elementlarini topib, chuqur o'rganadilar va tahlil qiladilar.

Malakka amaliyotining *“Amaliyot faoliyatining ma'naviy-ma'rifiy sohasida ishtirok etish”* bo'limi bo'yicha talabalar amaliyot rahbarlari maslahati bilan, respublikamizdagi ma'naviy-ma'rifiy sohada dolzarb masalalar bo'yicha mavzu tanlab, shu mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'playdi. Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot institutining amaliyot o'tilayotgan bo'limida ishchilar va (yoki) ilmiy xodimlar, hamda olimlar guruhi bilan shu mavzuda suhbat o'tkazadi.

Amaliyot yakunida talaba beshta bo‘limning har biri bo‘yicha bajargan ishlarini fayl papkaga jamlab (prezentatsiya, foto suratlar, tayyorlangan va tasdiqlangan hujjatlar, kafedra majlisi bayonnomasidan ko‘chirma va boshqalar), amaliyot bo‘yicha qisqacha hisobot tayyorlab, kafedrada amaliyot hisobotlarini qabul qilish hay’atiga ochiq himoya qiladi.

AMALIYOTNI BAHOLASH MEZONLARI

Amaliyotni baholashda uni tashkil qiluvchi bo‘limlar uchun alohida baho qo‘yiladi va ular jamlanadi. Har bir bo‘lim uchun dastlab maksimal ball miqdori belgilanadi. Bo‘limlar bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholashda uch pog‘onali baholash sistemasi tavsiya etiladi. Bunda shu bo‘lim uchun tavsiya etilgan maksimal ball bo‘lim bo‘yicha olingan javobning to‘liqligi va sifatiga qarab quyidagicha (2-jadval) oraliqda taqsimlanadi:

2-jadval

Amaliyotni baholash ballari taqsimoti

№	Amaliyot bo‘limlari	maksimal ball	1-pog‘ona bo‘yicha	2-pog‘ona bo‘yicha	3-pog‘ona bo‘yicha
1	Xom va tayyor mahsulotlar sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, ularni aniqlash uslub va vositalarini o‘rganish	20	18 - 20	15 - 17	11 - 14
2	Mutaxassislikka doir vositalar, uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish	25	22 - 25	18 - 21	14 - 17
3	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatitutida o‘rnatilgan reglament bo‘yicha assortimentlar turlarini ishlab chiqarish uchun texnologik rejim (texnologik karta) tuzish sistemasini o‘rganish	25	22 - 25	18 - 21	14 - 17
4	Korxonada va (yoki) ilmiy tadqiqot inatitutida	15	13 - 15	11 - 12	8 - 10

	qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni o'rganish, "klaster" elementlarini aniqlash va tahlil qilish.				
5	Amaliyot faoliyatining ma'naviy-ma'rifiy sohasida ishtirok etish	15	13 - 15	11 - 12	8 - 10

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» PQ-2909 son qarori
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Ўзбекистон Давлат Стандарти О'zDSt 362000:2015. 320000-Ишлаб чиқариш технологиялари таълим соҳасининг давлат таълим стандарти. Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. О'ZSTANDART AGENTLIGI 5925 son bilan "30" 10 2015 yilda Davlat ro'yhatiga olingan.

Mundarija

Kirish.....	3
Amaliyot o'tkazish muddatlari va joylari.....	4
Amaliyotning maqsad va vazifalari.....	4
Amaliyotni baholash mezonlari.....	7
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	8